



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

**TERMIZ MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA
INSTITUTI**



**“FAN, TA‘LIM VA ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA
MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO TALABALAR ANJUMANI
2022-YIL 30-NOYABR**

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE ENGINEERING AND
TECHNOLOGICAL FIELD BASED ON THE INTEGRATION
OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION”
NOVEMBER 30, 2022**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ СТУДЕНЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ
«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ
ОБЛАСТИ, ОСНОВАННОЙ НА ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ,
ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА»
30 НОЯБРЯ 2022 ГОДА**

II-QISM

- Олинган фракцияларнинг физик-кимёвий ҳамда физик-механик хусусиятлари ўрганилди;
- ГОСТ 9128-2003 стандарти биноан олинган фракциялар асосида асфальтбетон қопламаси тайёрланди;
- Тайёрланган қоплама 4Р-20 “Қорасув-Бўка-Бекобод” ва 4К-788 автомобил йўлини туташтирувчи, Тошкент вилояти Бекобод шаҳрига кириб келиш жойидан “Ўзметкомбинат” АЖ гача бўлган 1,2 км узунликдаги йўлга ётказилди [5].

Шу билан бирга, олинган асфальтбетон қопламаси мустаҳкамлиги, қовушқоқлиги ҳамда сифати жиҳатидан кутилган натижани берди.

Қабул комиссияси Тошкент давлат техника университети ҳамда Тошкент давлат транспорт университети илмий ходимлари ва илмий изланувчилари томонидан ишлаб чиқилган “Металлургия саноатида ҳосил бўлаётган қаттиқ чиқиндиларидан фойдаланиб юқори эксплуатацион хусусиятларга эга бўлган йўл қурилиш материаллари олиш технологиясини” йўл пойи кўтармасини қуришда, йўл-қурилиш ишларида йўл ости ва устки қатламларда ҳамда асфальтбетон қоришмасини ишлаб чиқаришда қўллашни тавсия этади.

Ушбу технология асосида мамлакатимизнинг асосий ҳамда ички йўллари таъмирлаш билан юқори иқтисодий самарага эришиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси президентининг “2020-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасининг автомобил йўллари ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори лойиҳаси. Тошкент ш. 2020 й. [1].
2. “Автомобил йўллари ва аэродромлар учун асфальтбетон аралашмаси” ГОСТ 9128 – 2009, Халқародавлат стандарти., Москва, 2010 й.[2]
3. “Ўзметкомбинат” АЖ чиқиндилари пайдо бўлиш манбаи ва ташланадиган жойлар экологик мъёёр лойиҳаси. Бекобод ш., 2016 й.
4. “Ўзметкомбинат” АЖнинг ЧРЭТ экологик мъёёр лойиҳаси (атмосферага ташланаётган зарарли ташламалар). Бекобод ш., 2016 й.[3]
5. “Автомобил йўллари ва аэродромлар учун асфальтбетон аралашмасига қўйиладиган талаблар” ГОСТ 9128 – 97, Халқаро давлат стандарти., Москва 2010 й.[4]
6. “Фан ва техника тараққиётида интеллектуал ёшларнинг ўрни” мавзусидаги Республика илмий-техникавий анжумани, Тошкент – 2019 й.
7. Республиканской научно-технической конференции «Ресурсо- и энергосберегающие, экологически безвредные композиционные и наноконпозиционные Материалы», Ташкент – 2019 й.[5]
8. Инновацион техника ва технологияларнинг атроф-муҳит муҳофазаси соҳасидаги муаммо ва истиқболлари мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани илмий ишлар тўплами, Тошкент – 2020 й.
9. www.gov.uz
10. www.uzbeksteel.uz
11. www.lex.uz
12. www.uzavtoyul.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Abdullayeva U.T.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Fan va axborot hozirgi zamondagi o‘sish sur‘ati va hajmi 20-30 yil oldingi ularning holatidan keskin farq qiladi bu esa o‘z-o‘zidan zamonaviy axborot oqimini o‘zlashtirish, ilmiytadqiqot malakalari, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o‘quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini ta’minlashi lozim bo‘ladi.

Zamonaviy fanning ko'chkisimon rivoji natijasida fan daraxti paydo bo'ldi. Shuning uchun kadrlar tayyorlovchi tizim original va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini, o'z ustida tizimli va mashaqqat bilan ishlash malakalarini rivojlantirishi lozim. O'quvchi ajablana olishi, hayratlana olishi lozim, shundagina u boshqalarni o'zining ijodiy mehnati bilan hayratlantira oladi.

Fanning ko'chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o'suvchi ilmiy-texnikaviy axborot, axborotni uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, uning asosida esa kompyuter texnikasi yotadi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanishni, o'qitishni individuallashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, zamonaviy o'qitish tizimining markaziy o'zagi – o'qitishni individuallashtirishdir. Shuning uchun o'qitishni individuallashtirish, mustaqil ta'lim, masofaviy o'qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Muhandislik yechimlar turining keskin ortishi va jadallashuvi oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlovchi tizimda ishlab-chiqarish, texnika texnologiyaning uzluksiz o'zgarib turuvchi sharoitiga zudlik bilan moslashuvchanlikni shakllantirishga yo'naltirilishini taqozo etadi. Ular bilimlar harakatlanuvchanligi, tanqidiy fikrlash, ijod va kasbiy faoliyatida epchillik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni oliy maktabda tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, o'qitishda inson organizmining, uning ongini butun imkoniyatlaridan to'la foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Ya'ni, timsolli-tomosha o'qitishni jadallashtirish lozim, bu esa, o'qitish jarayonida axborotlar berishda, o'quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o'qitishni kompyuterlash, o'quv televideniya yordamida foydalanish kabilarni anglatadi. - Har bir odam tabiatan individumdur, ya'ni u faqat o'ziga xos o'qish va o'rganishdagi zehni, qobiliyatiga ega bo'ladi. Demak, zamonaviy o'qitish tizimining vazifasi o'quvchining individual qobiliyatini hisobga olish va rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Shu va shunga o'xshash taraqqiyot kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablarni qo'ya boshladi va mamalakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizida ana shunday muammolarni hal etish, ta'limda ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularni samarali qo'llash, kadrlar sifati va salohiyati zamon talablari darajasida bo'lishiga erishish masalalari yotadi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida pedagogning pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish «pedagogning innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'ldi. Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar kirib keldi va bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi.

O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratadi, ta'lim-tarbiyasi butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda bir qator o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali bo'lajak mutaxassislarni mavjud pedagogik qonuniyatlar va aniq shart-sharoitga, asosan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash samarali metod va vositalarni tanlashga o'rgatishdan, pedagogik texnologiya, pedagogik jarayonni loyihalash, ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmunini va optimal metodlarini qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, pedagogik diagnostika qobiliyatini o'stirishdan yoki ta'limga kompetentli yondoshuvni tashkil etishdan iborat.

Ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'qituvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga jalb etilishi;

o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikni ta'minlanishi;

o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirilishi;

pedagog va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchining ta'limga kompetentli yondoshuvi o'quvchilarning ham tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantiradi.

O'quvchi shaxsi, uning mustaqil bilish faoliyati ta'lim jarayonida rivojlanib borishi tufayli ta'lim metodlarini takomillashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Shu tariqa ta'lim jarayonini mazmunan umumlashtirish konsepsiyasi, ta'limni algoritmlashtirish, muammoli ta'lim, aqliy faoliyatni bosqichlab shakllantirish nazariyasi, ta'limda hamkorlik faoliyati kabi g'oyalar yuzaga keladi. Bu hol avtoritar pedagogika o'z o'rnini hamkorlik pedagogikasiga berishini taqozo etadi. Endi o'qituvchi o'quvchining rahnomosi, eng yaqin odami, hamdardi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar jadal suratlar bilan kirib bormoqda. Ta'limda interfaol metod- bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini yanada kuchaytirish, faollashtirish demakdir.

REFERENCES

1. Kuralov, J. A., (2022). Кўн ярим маҳсулотига механик ишлов берувчи машинанинг йўнувчи вали ҳаракат дифференциал тенгламаси. *Yangi materiallar texnologiyasi*, 4(1), 297-299
2. Kuralov, J. A., (2021). Моделирование течения жидкости в цилиндре со свободной поверхностью. *Matematik fizik va matematik modellashning zamonaviy muammolari*, 1(2), 70-73.
3. Abdullayeva, U. T., (2022). Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётини қиёсий ўқитишнинг илмий - назарий асослари. *Globalashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta'lim texnologiyalari*, 1(1), 272 – 274.
4. Abdullayeva, U. T., (2021). Туысқан халықтар әдебиетін оқыту. Независимый казахстан: современный образовательный потенциал и достижения, 1(3), 9-11.
5. Abdullayeva, U. T., (2021). Учащихся школы «человек слова» понятие о технологии применения темы проходит резюме. Кластер педагогического образования: проблемы и решения, 1(2), 1181-1183.

CLUSTER APPROACH TO TERRITORIAL MANAGEMENT ECONOMIC SYSTEMS

Kurpayanidi K.I. – DSc doctoral student, Fergana Polytechnic Institute

From a scientific, methodological and administrative-practical point of view, clustering of the territory is a complex process. Regardless of the number of clusters being created and their scale, the region needs to have its own concept of cluster policy [1].

МУНДАРИЖА

Ф.И.Ш	Мақола мавзуси	бет
4-SHO'BA		
Xujakulov S.Sh.	KOREAN EDUCATION SYSTEM INTEGRATION	7
Usmanov Sherzod, Bukhtaeva Varvara, Sakbaeva Vitaliya Vladimirovna	TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN NON-FHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF A COMPETENCE-BASED APPROACH	8
Каримбердиев Ф.Ш., Шокиров С.Р., Шарипов А.Л.	АВТОМОБИЛ ЙЎЛЛАР ҚУРИЛИШИ ВА ТАЪМИРЛАНИШИДА МЕТАЛЛУРГИЯ КОМБИНАТИ ҚАТТИҚ ЧИҚИНДИЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ ЕЧИМИ	10
Abdullayeva U.T.	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	12
Kurpayanidi K.I.	CLUSTER APPROACH TO TERRITORIAL MANAGEMENT ECONOMIC SYSTEMS	14
Abduvaliyeva M.J., Musurmonova A. I.	INSON ORGANIZMINING OG'IR METALLAR BILAN ZARARLANISHI	16
Собирова Д.Т., Ғофурова Г.	СЕНДВИЧ-ПАНЕЛЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ТЎҒРИСИДА	18
Fayzullayev J.I., To'xtasinova Z.A., Ortig'aliyeva M.A.	KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	21
Voxidov B.R., Qayumov O.A.	TITANOMAGNETIT ZAHIRALARI VA ULARDAN VANADIY AJRATIB OLISH MUAMMOLARINING HOZIRGI HOLATI	24
Qayumov O.A., Yormatov D.A.	ERITMALARDAN SORBSION USULIDA VANADIY AJRATIB OLISHNING ADABIYOTLAR TAHLILI	26
Абдураимов Д. Э., Абдураимов Р.Э., Худойқулов Р.Ў., Нафасов Ғ.А.	МАТЕМАТИКА ВА ФИЗИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШГА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ТАДБИҚИ	27
Абдураимов Д. Э., Абдураимов Р.Э., Худойқулов Р.Ў.	МАТЕМАТИКАГА ИХТИСОСЛАШТИРИЛГАН СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ	28
Bozarov B.I., Xatamova D.I.	TRIGONOMETRIK VAZNLI OPTIMAL KVADRATUR FORMULALARNING NORMASI	30
Ko'paysinova Z.Sh., Topvoldiyev M.A.	CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASININI MATEMATIK PAKETLARDA YECHISH	31
Mallaboyev N.M., Nazarova Sh Sh., Murodullayev R.N., Nazarova G.Sh.	AN'ANAVIY TA'LIM MODELLARI	33
Mallaboyev N.M., Nazarova Sh Sh., Murodullayev R.N., Nazarova G.Sh.	ARALASH TA'LIM AFZALLIKLARI	36
Назарова Г.А., Мамадалиев Н.И.	БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТАМОЙИЛЛАРИ	38
Kuralov J.A.	MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	39
Kuralov Y.A., Xakimova M.M.	FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI	42
Ниязова Н.А., Акбаралиев С.К.	СОТРУДНИЧЕСТВО ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЕДИНОЙ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ.	44
Rasulov R.G'., Ahmadjonov B.I.	MAPLE TIZIMIDA IKKI TEKISLIK MUNOSABATINI ANIQLASHDA FOYDALANISH	45
Samatov S.M.	INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TA'LIM TARAQQIYOTINING	48